

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

9-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 9 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ahmadjonov Ahrorbek Shuhratbek o'g'li

THE JEWS OF CENTRAL ASIA DURING THE RUSSIAN EMPIRE AND SOVIET ERA:

THE LEGAL, SOCIAL, AND CULTURAL LIFE OF THE BUKHARAN JEWS 9-13

Xurramov Xamid Bobokul o'g'li

AMIR TEMUR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ONIYON QANDAY O'RIN TUTGAN? 14-18

Zikirova Maxprat Soliyevna

HARBIY SOHADA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI

VA ULARNING MILLIY XUSUSIYATLARI 19-25

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Амбарцумян Анастас Алексеевич

СОСТОЯНИЕ И НЕКОТОРЫЕ ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ

ЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА 26-38

Rajabov Alibek Xushnudbekovich

ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARNI MINTAQAVIY IJTIMOYIY-IQTISODIY

RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI 39-46

Xaytboyeva Nigora Bakmamatovna

OPPORTUNITIES FOR USING CUSTOMER-ORIENTED MARKETING STRATEGIES

IN TEXTILE ENTERPRISES 47-52

Shixiyev Raxim Muhammedovich

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARINING

RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

ISTIQBOLLARI 53-60

Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna

SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING EKONOMETRIK

VA STATISTIK TAHLILI 61-66

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Navro'zova Gulchehra Nigmatovna

BAHOUDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA VASL MASALASI 67-70

Yuldasheva Diloram Yuldashevna

O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING

DOLZARB MASALALARI 71-74

Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich

ZAMONAVIY JAMIYATDA FUTBOL FALSAFASINING AHAMIYATI 75-80

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Ayimbetova Zamira

BADIIY ADABIYOTDA MOTIVLARNI TIZIMLASHTIRISH

VA TASNIFLASHNING NAZARIY ASOSLARI 81-87

<i>Kurbanbaev Djavod Aminbaevich</i> ANTROPOSENTRIZM PARADIGMASINING ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOIYILLARI	88-92
<i>Петросянц Эрнст</i> СЕЛЕБ-СЛОВА: ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, РОЖДАЮЩИЕСЯ В МЕДИА	93-99
<i>Gulmuradova Sobira Rustam qizi</i> NAVOIY VA TILIMIZ	100-103
<i>Begmatova Sitora Bekzod qizi</i> ROMANTIZM OQIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI	104-107

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Firuz Muxitdinova</i> JAMIYAT BARQARORLIGI VA SHAXSIY BURCH: JAVOBGARLIK MADANIYATI HAQIDA TAHLILY MULOHAZA	108-113
<i>Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi</i> NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING ROLI	114-123
<i>Narimanov Bekzod Abduvaliyevich</i> IJTIMOIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION USULLARI	124-135
<i>Umarova Barno Akbutayevna</i> FUQAROLIK SUDLARIDA ATROF-TABIIY MUHITGA NISBATAN YETKAZILGAN ZARARLARNI UNDIRISH BILAN SUD AMALIYOTIDAGI MUAMMOLARNING AYRIM JIHATLARI	136-143
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI	144-150
<i>Normatov Ermamat Toyir o'g'li</i> ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HUQUQ VA MILLIY QONUNCHILIK	151-164
<i>Karamanova Benazir</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING QONUN IJODKORLIGIDA ISHTIROKI	165-169
<i>Ametova Nurjamal Kudaybergenovna</i> JINOYATLARNI OLDINI OLISHDA QO'SHIMCHA JAZOLARNING PREVENTIV XUSUSIYATLARI	170-177
<i>Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich</i> NEUSTOYKA TO'LASH JAVOBGARLIK TURI SIFATIDA	178-181

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Madaminova Gulzoda Madaminovna</i> VOLEYBOL MASHG'ULOTLARI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFAT KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH	182-185
--	---------

Rizayeva Gulnoza Xikmatuloyevna

AKADEMIK LITSEYLARDA “ATOM VA YADRO FIZIKASI BO‘LIMI MAVZULARINI”
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QITISH METODIKASI. (“ELEMENTAR
ZARRALAR «BOG‘I». POZITRONNING KASHF ETILISHI. ANTIZARRALAR. ELEMENTAR
ZARRALARNI XARAKTERLOVCHI KATTALIKLAR. ELEMENTAR ZARRALAR
FIZIKASIDAGI SAQLANISH QONUNLARI. ORALIQ BOZONLAR-KUCHSIZ O‘ZARO
TA‘SIRNING TASHUVCHILARI” MAVZUSI MISOLIDA) 186-197

Received: 15 August 2025
Accepted: 30 August 2025
Published: 15 September 2025

Article / Original Paper

WHAT WAS THE ROLE OF TERMEZ AND CHAGANIYAN DURING THE REIGN OF AMIR TEMUR ?

Khurramov Khamid

TerSU, Faculty of History, PhD student

Email: hamidxurramov800@gmail.com

Abstract. Emir Temur is known from history as a great commander, a just leader, and a world-famous religious leader. According to many products of his later life, he turned the country into a prosperous and peaceful center, established trade and commerce, and regulated monetary relations. He regulated the control of the mint in Termez. In his work, it is mentioned that there was a customs post. At the same time, Sharafiddin Ali Yazdiy's work "Zafarnoma" mentions the importance of Termez and Chaghaniyon. Also, in Termez, Sahibkiran met Sayyid Baraka, one of the piri of Emir Temur, and received a large drum and flag, which were symbols of the kingdom.

Keywords: Emir Temur, Termez, Chaghaniyan, Sayyid Baraka, Zafarnoma, Amu Darya, Kahlagha, Sharafiddin Ali Yazdi, Nizamiddin Shami, Ghiyosiddin Ali, Muyiniddin Natanzhi, Klaviho, Fasikh Khawafi.

AMIR TEMUR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ONIYON QANDAY O'RIN TUTGAN?

Xurramov Xamid Bobokul o'g'li

TerDU, Tarix fakulteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Amir Temur tarixdan ma'lumki, buyuk sarkarda, adolatli rahbar, dunyoga mashhur din peshvosi. Hayoti davrida ko'plab qiyinchiliklarga qaramasdan, yurtni obod va so'lim markazga aylantirib, savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'yib, tanga pul munosabatlarini tartibga solgan. Termizda zarbxona qurilganligi, Amudaryodan kechuv joyi bo'lganligi bois, Klavixo asarida bojxona posti bo'lganligi aytib o'tiladi. Shu o'rinda Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida Termiz va Chag'oniyonning naqadar muhim ekanligi aytib o'tiladi. Shuningdek, Termizda Sohibqiron Amir Temur pirlaridan bo'lmish Sayyid Baraka bilan uchrashib, saltanat ramzlari bo'lgan katta nog'ora va bayroqni qabul qilib olganligi haqida bir nechta adabiyotlarda qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Termiz, Chag'oniyon, Sayyid Baraka, Zafarnoma, Amudaryo, Qahlag'a, Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Ghiyosiddin Ali, Muyiniddin Natanzhi, Klavixo, Fasix Xavofiy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I9Y2025N02>

Kirish. Dunyo tarixida muhim rol o'ynagan shaxslardan biri Sohibqiron Amir Temur tarixi haqida ko'plab asarlar yozilgan va bugungi kunda ham juda yaxshi o'rganilib kelinmoqda. Sohibqiron Amir Temur qilgan ishlari hozirgi kunimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shu baravarida har bir hududni har tomonlama rivojlanishiga turtki beradigan islohotlarni amalga oshirgan. Bu ishlarni amalga oshirishda yonidagi vazirlar va ilm ahllari doimo yonida turib, o'z maslahat va tavsiyalarini berishgan, shu jumladan pirlaridan bo'lmish Sayyid Baraka bilan uchrashuvi ham qiziq tarzda kechgan. Amir Temur va Amir Husayn o'rtasida adovatlashib yurgan paytda, Amir Husayn qo'shin yig'ib, qo'shinning manglay qismi Termizga yetganida, qarshisida Amir Temur paydo bo'ladi. Amir sohibqiron bahodirlarining qorasini ko'rgandan so'ng, hatto o'q otmaslaridan ilgari, uzoqdan tumtaraqay qochib orqaga qaytishadi. Amir

sohibqiron u yerdan Buyoga jo'nadi lashkargoh qurdi. Amir Sayyid Baraka ikki muqaddas shahar (Makka va Madina) vaqflaridan yig'ilgan mablag'ni olish uchun amir Husayn huzuriga kelgan edi. Undan vaqflaridan yig'ilgan molni berishini so'raganida, amir Husayn buning katta miqdordagi mablag' bo'lishini ko'rib rad qildi. Shuningdek, u amir Sayyid Barakaga sayidlarga munosib bo'lgan darajada iltifot ko'rsatmagan edi. U bunday muomala tufayli arazlab, ketishga ijozat so'radi va ushbu manzilda Amir sohibqironga kelib qo'shildi. Sayyid Baraka nog'ora, tug' va mamlakat yorlig'ini Amir sohibqironga peshkash qilib, bor himmati bilan hazrati rasul va Murtazo Ali alayhissalom ruhlaridan madad so'rab, ezgu tilaklar tiladi. Amir sohibqiron uning nafasi va qadamini qutlug' va saodatli bilib, ikki muqaddas shaharga qarashli butun vaqflarning daxlsizligini e'tirof qilib, bulardan yig'ilgan mablag'ni unga topshirdi. Shuningdek, u Sayyid Barakaga izzat-hurmat ko'rsatishni shunchalik o'rniga qo'ydi, butun olam ahli to qiyomatgacha buni naql qilajakdir. Amir sohibqiron u yerdan eson-omon ko'ch qilib, Chag'oniyonga bordi[1;107-b.].

Bundan ko'rishimiz mumkinki, Amir Temur va Sayyid Baraka o'rtasidagi ilk uchrashuv Termizda bo'lgan. Yana bir ma'lumot shuki Sharafiddin Ali Yazdiy ham "Zafarnoma" sida Amir Temur va Sayyid Baraka uchrashuvi Termizning Beva qishlog'ida uchrashganligini keltirib o'tadi. Bunga quyidagi surat ishlangan.



1-rasm.

Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo ham o'z asarida ba'zi ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Daryoning narigi sohilida joylashgan Samarqand saltanatini o'ziga bo'ysundirgan Temurbek

Xuroson saltanatini ham zabt etmoq uchun daryoning berigi sohiliga yetib kelgan edi. Amudaryo juda keng, o'zani juda chuqur bo'lgani uchun ko'prik qurilmagan edi. Ko'prik qurilsa ham o'ta qisqica muddatda darhol buzib tashlanadi. Temurbek kishilari bilan Samarqand saltanatidan nariga yurib kelgach, ularga ko'prik qurib, daryodan o'tish va o'tgan joyda dushmanga qarshi jang qilishni buyurgan. Ko'prik daryoning bir qirg'og'idan boshlanib, narigi sohilga yetgani yo'q. U anchagina masofaga davom etib, daryoning ot va chorva kechib o'tishi mumkin bo'lgan joyida, suvda tugaydi. Bu yerda ko'prik yo'q. Mazkur azim daryoning narigi yonidagi tekislikda Iskandar (Zulkarnayn) hind podshosi Por bilan jang qilib, uni mag'lub etgan.

Elchilar azim daryo bo'yiga kelgan payshanba kuniyoq, daryoning narigi qirg'og'iga o'tib oldilar. Usha kuni kechqurun Termid (Termiz) degan katta shaharga keldik. Shahar ilgari Kichik Hindiston (Afg'oniston)ga qarar edi. Temurbek zabt etganligi tufayli endilikda Samarqand saltanatiga qaraydi.

Yuqorida aytilganimizdek, mazkur daryodan Samarqand saltanati boshlanadi. Samarqand saltanatidagilarni Mo'g'ullar deb ataydilar. Ular muqim va muhofazakor kishilar edi. Bu yurtga daryoning berigi tomonidan kelgan xalq turli xalqlardandir, chunki ularning hammasi bir-birlari bilan forscha gaplashadilar, berigi sohilda istiqomat qiluvchilarning tili bilan fors tili keskin farq qiladir. Samarqandliklar qo'llayotgan yozuvni berigi sohildagilar o'qiy olmaydilar va tushunmaydilar. Samarqandliklarning yozuvi mu'f ul yozuvi (?) deb ataladi. Saltanatda mu'ful yozuvini o'qiy oladigan va unda yoza oladigan bir necha mirzolarigina mavjud. Samarqand saltanatida aholi tigiz joylashgan. Tuprog'i serunum bo'lib, hamma narsa mo'l-ko'llik edi.

Azim daryoda podshohning farmoyishiga binoan amal qiladigan udum bor: daryoning bu sohilidan narigiga podshoh o'rtagan ko'prik orqali kechuvchi yoki u yerga tashuvchi har qanday narsani yozuv orqali ro'yxatdan o'tkaziladi va darajada ro'yxatga olinganlar taqdim etiladi. Saltanatdagi barcha xazinalar, muhim xat-u hujjatlar, elchilarning yuborgan xatlari shunday yo'l bilan o'tadi. Shu sababli, daryoning narigi sohilda qo'shinning yurishi va yurmasligi haqida xat yozib, yozma dalil bilan tasdiqlanmaguncha, hech qanday yurish-harakat qilish mumkin emas.

Qayiqlarga podshoh tomonidan qorovullar tayinlangan bo'lib, o'tuvchilardan katta boj olinadi. Daryo bo'yiga bunday qorovullar guruhi qo'yilganligining sababi bor. Samarqand saltanati aholisini ko'paytirish va martabasini oshirish maqsadida Temurbek o'zi zabt etgan barcha mamlakatlardan ko'plab asirlarni olib kelgan. Qorovullar ana shu asirlarning o'z mamlakatlariga ko'chib ketmasliklari uchun daryo bo'yini qo'riqlab turar edilar. Podshohning farmoyishi bilan ish ko'rgan kishilar Eron va Xuroson erlarida uy-joysiz daydib yurgan yetim-yesirlarni, qashshoq, beva-bechoralarni tutib olib Samarqandga keltirar va ularni bu yerda joylashtirar edilar. Dala-dashtda sigir etaklab, ko'ziga hech nima ko'rinmay, o'zini eshitmay yurgan bechora kishini qo'lga tushirib, oilasi bilan Samarqandga jo'natish podshohning buyrug'i edi. Shunday qilib, Temurbek ko'plab xalqlarni bu yerga ko'chirib kelgan, ularni Samarqandga joylashtirgan.

Shahar (ya'ni Termiz) daryo bo'yida joylashgan kattagina shahar ekan. Atrofi devor bilan o'ralmagan; bu yerda bog'-rog'lar ko'p, suv mo'l edi. Shahar haqida men sizga faqat shuni aytishim mumkinki, unga kirganimizdan so'ng shu qadar ko'p yo'l yurildiki, bizga ajratilgan binoga yetib kelganimizda batamom holdan toyib qolgan edik. Butun yo'l davomida har xil narsalar bilan savdo qilinayotgan gavjum maydonlar va ko'chalardan o'tdik. Termizda

elchilarga katta izzat-ikrom ko'rsatilipdi, hamma zarur narsalar bilan ta'minlanipdi, ular shohli to'ylar kiydirishipdi.

Bu yerga podshoh tomonidan elchilar huzuriga yuborilgan yangi chopar keldi. U elchilarni podshoh nomidan muborakbod etdi. Chopar elchilarning safari qanday kechayotganini, yo'lda o'zlarini qanday his etayotganini, joylarda qay tarzda xizmat ko'rsatilayotganidan ogoh bo'lmoq va elchilarning Samarqandga qachon yetib kelishlarini bilmoq uchun yuborilganini ma'lum qildi. Chopar qaytib ketayotganida unga ham kimxob to'n kiygizishdi. Shuningdek, podshoh nomidan elchilar huzuriga yuborilgan birga ketayotgan avvalgi choparga ham Florensiyada tikilgan kiyim sovg'a qilindi. Elchilar bilan birga ketayotgan Bobil (Misr) sultonining elchisi ham ular haqida shunikdek xabardor edi. Buni ham podshoh bilib, uni ikkinchi chopar orqali yana mukofot qildi. Chunki podshoh yurtlarida qilinayotgan har bir muomala, xizmat yuzasidan xabardor bo'lib turardi va uni baholardi. Podshoga yuborilgan elchilar haqida, ularning sayohati, yurish-turishi, kayfiyati, taomlar, sovg'alar haqida doimo so'rab turar, bu voqealarning barchasiga baho berar va bundan faxrlanardi[2;142-144-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada Amir Temur davrida Termiz va Chag'oniyon haqida zamonaviy ilmiy tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanilgan. Jumladan, mavzuga doir ma'lumotlarni aniqlashda statistik tahlil, mavjud ma'lumotlardan xolisona foydalanildi. Amir Temur davri tarixini ochib berishda asosiy manbalardan foydalanilib, shu davr tarixini dolzarb mavzusini ochib berishga qaratildi.

Natijalar va muhokama. Termiz tarixini ochib berishda ko'plab ma'lumotlar va manbalar tahlil etildi. Amir Temur va Ilyosxo'ja o'rtasida tortishuv bo'lganida ham Termizda faoliyat ko'rsatgan. Temur tuzuklarida bu haqida ma'lumot keltiriladi. Jeta lashkari amirlari ustidan zafar topgan, mening paydo bo'lganim xabari keng tarqaldi. Shunda adl va insof bilan ish bularsam va zolimlar qo'lini mazlumlardan qisqartirsam va xarob bo'lgan mamlakatni aholi va jamiyat bilan obod etsam, bu viloyatning omon-rohatini ilgari mamlakatlarga oborsam, eski saltanatimni qayta rojuya keltirib mahbub etsam, bu mamlakat aholisi farog'at bilan mulk obodligiga sodiq xizmat qiladilar, deb niyat qildim.

Va yana saltanatim kengashini munda topdimki, jamg'argan xazinamni ulashturgaymen va avval Qahlaqaqal'asini ishg'ol qilgaymen. Shu maqsadla lashkarimga pul berib, tuzuk va tartibga keltirdim. Jayhun qirg'og'iga etib, Termiz kechuvindan o'tib, Qahlaqa sariga qorovullar yubordim. Va Jayhun suvi etagisida necha kun iqomat qilib, qorovullar xabariga muntazir bo'ldim.

Mening xabarim Ilyosxo'jaga etib borgach, Bekchik Bahodirning birodari Ipmum Bahodirni lashkar bilan mening ustimga hujum qilishga tayin etib yubordi. Va mening qorovullarim go'rfi bo'lib, uyquda borganda, Ipmum Bahodir ularni yengib, necha kishi ila kelib, menga tunli hujum uyushtirmoqchi bo'ldi. Va mening tushgan orolim shunday orol ediki, uning uch tarafini suv edi va orol tashida bo'lgan bir necha chodir Jeta lashkari torrojiga ketdi. Va odamlar kelib orolga kirdilar va men urushga tayyor bo'lib, orol etagisida turdim. Ganimning ko'ziga ko'rinmaganim sababli urushmoq kelmadilar.

Va men to o'n kungacha turgan oroldan chiqib, suv qirg'og'ida bir oy muddat, toki ganim ko'rgach bizga qaytmaguncha Jeta lashkari qarshisida turdim. Undan so'ng men suvdan o'tib, ularning manziliga kundim va bir jamoani ularning keyinidan yubordim[3;20-b.].

Temuriylar davrida Termiz sayyidlari ham muhim o'rin tutgan. Amir Temrning Hindistonga yurishida elchi sifatida ham faoliyat ko'rsatganini ko'rib o'tamiz. Chorshanba kuni

chochtgoh paytida Rabbon fazliyu Yazdon lutfi hamrohligida sulton Jahonpanohning iydgoz darvozasi yaqinidagi Xojayi jahon havzi bo'yidan ko'chdi. Firuzobodga yetib kelgach, shu yerda bir soat tavaqquf qildi. Bu go'zal nazargoh mavzeni tomosha aylab, Firuzobod masjidida o'ziga yuborilgan hadsiz ne'matlar uchun Allohga shukronalar aytib, ikki rakat namoz o'qidi. Firuzobod darvozasidan tashqariga chiqqanlarida Kuku shahri shihnasining noibi termizlik xonzodalardan bo'lmish Alouddin yetib keldi. U ilgari humoyun lashkargohdan Lihovar tarafiga elchi sifatida borgan edi. U kelib arz qildiki, bu diyorning hokimi Bahodir Bahor boshini bandalik chizig'iga qo'yib va belini xizmat kamari ila bog'lab, juma kuni jahonpanoh turgan yerni o'pish sharafiga Musharraf bo'lmoqqa tayyor. Oliy hazrat bu yerdan ko'chib, Vazirobod yaqinida nuzul qilgan vaqtda, Bahodir Bahor tomonidan yuborilgan elchilar ikkita oq to'tiqushni ko'tarib kelib qoldilar va arz qildilarki, bu to'tilar Sulton Tug'luqshoh tomonidan qolgan, uzoq muddat sultonlar majlislarida suhanvarlik qilib, qand yeb kelgan hamda jahon kattalariyu olam sarvarlarining nazriga tushgan[4;153-154-b.].

Xulosalar. Temuriylar davrida yozilgan manbalardan olingan ma'lumotlar asosida ba'zi bir xulosalarni keltirib o'tishni kamina joiz deb topdi. Temuriylar davri mustaqil O'zbekiston tarixida juda yorqin iz qoldirgani bilan izohlanib, shu o'rinda Termiz ham Amudaryo bo'yidagi katta shahar bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan juda rivojlangan, Termiz sayyidlari elchilik aloqalaridan tortib, urushlarda katta muvaffiqat qozonishda muhim rol o'ynagan. Amir Temurni Dashti Qipchoqqa, Oltin O'rdaga To'xtamishxonga qilgan safarida Sayyid Baraka jangda yengilayotgan lashkarga madad berish maqsadida yerdan bir siqim tuproq olib dushmanga qarata sohib, dushman qochti deb ayganidan ruhlangan askarlar To'xtamish qo'shinini tormor etib, jangda g'olib bo'lishadi. Shu sababdan temuriylar davrida Termiz asosiy shahar, tanga pul zarb ettiladigan joy bo'lib xizmat qilgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Muiniddin Natanziy Muntaxab ut-tavorixi Muiniy (Muiniy tarixlari tanlanmasi) / Muiniddin Natanziy; fors tilidan tarj., so'z boshi va izohlar muallifi G'.Karimiy; mas'ul moharrir A.O'rinboyev.-T.: "O'zbekiston", 2011.-264 b.
2. Rui Gonzales de Klavixo Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar); mas'ul moharrir: Muhammad Ali; so'zboshi va izohlar muallifi M.Safarov; O.Tog'ayev. -T.: "O'zbekiston", 2010. -264 b.
3. Amir Temur Ko'ragon. Temur tuzuklari -T.: "Fan va texnologiya", 2014.-196 b.
4. Hindiston yurishi kundaligi / G'iyosiddin Ali. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024 yil. -304 b.
5. Jaloliddin Mirzo Termiz tarixi. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001.
6. Ibn Arabshoh Ajoyib al-maqdur fi tarixi taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) I-II-kitoblar. Toshkent. "Mehnat". 1992
7. Sharafiddin Ali Yazdiy Zafarnoma "Yangi asr avlodi", 2023.-576 b.
8. Nizomiddin Shomiy Zafarnoma -T.: "O'zbekiston", 1996.-528 b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 9 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).